

# “Yangi G‘O‘Zaning C-7316 Navini O‘Sishi, Sug‘orilish Tartiblari Hamda G‘o‘zaning Rivojlanishiga Ma‘danli O‘G‘Itlar Va Ko‘Chat Qalinligining Tas‘iri” Mavzusida

*Saydaliyev Begijon Shavkatbek <sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** G‘o‘za o‘‘suv davrida sifat jixatidan farq qiladigan bir necha rivojlanish davrlarini kechiradi, bu xol oziqlanish jarayoniga xam ta‘sir etadi. G‘o‘zani unib chiqish, shonalash, gullash, ko‘sak tugish va pishishdan iborat rivojlanish davrlari bo‘ladi. O‘g‘itning paxta xosiliga va o‘‘suv davri davomida g‘o‘zaning rivojlanishiga qanday tasir ko‘rsatishini o‘rganish natijalari o‘simlik xayotini oltita davrga bo‘lib chiqishni taqazo qiladi. Birinchi davr – chigit unib chiqishidan nixollarda birinchi chinbarg xosil bo‘lguncha o‘tgan vaqt. Ikkinchi davr – g‘o‘zada bitta chinbarg xosil bo‘lgandan birinchi shona paydo bo‘lgunga qadar o‘tadigan vaqt. Uchinchi davr – g‘o‘zani birinchi shona chiqarish paytidan birinchi guli ochilgan paytigacha o‘tadigan vaqt. To‘rtinchi davr – g‘o‘zani gullash-ko‘sak tugish davri bo‘lib, ancha uzoq cho‘ziladi. Beshinchi davr – g‘o‘za dastlabki ko‘saklari ochilishigacha davom etadi. Oltinchi davr-ko‘saklarning ochilish davri bo‘lib, u dastlabki ko‘sakning ochilishidan boshlab o‘‘suv davrining oxirigacha davom etadi. O‘simlikni yaxshi rivojlanishi va ko‘saklarning barvaqt ochilishi, shuningdek mo‘l va yuqori sifatli xosil olish uchun o‘simlik xayotining dastlabki davrlarida sharoit yaratilishi, o‘sha paytda ular yetarli darajada oziq moddalar bilan taminlangan bo‘lishi kerak.

**Kalit so‘zlar:** O‘g‘itlarning samaradorligi, oziq moddalarni miqdor va sifat jixati, o‘‘suv davri, qisqa va uzoq oziqlanadigan guruxlar, g‘o‘za o‘‘suv davri, rivojlanish davrlari, unib chiqish, shonalash, gullash, ko‘sak tugish va pishish, nixollar, azotli, fosforli va kaliyli o‘g‘itlar, chinbarg, shona, gul, ko‘sak.

Tadqiqot obyektini va uslublari. Tajriba tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot davlat instituti eksperimental tajriba maydonida sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar bilan to‘ldirilgan lizimetrlarda olib borilgan. Tadqiqotlar olib borilayotgan lizimetrlar beton bilan o‘ralgan bo‘lib, yuzasi 1 m<sup>2</sup>, chuqurligi 70 sm, tagi ochiq holda. Lizimetrlarni pastki 20 sm qismi tabiiy grunt bo‘lib, ustki 50 smga esa sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproq solib to‘ldirilgan.

Dunyoda paxta yetishtiruvchi davlatlar orasida O‘zbekiston eng shimoliy davlatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun yangi yaratilayotgan navlarning hosildorligi, tola sifati va albatta tezpisharligiga ham asosiy e‘tiborni qaratish lozim.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmonining 3.3-bandida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha yuqori mahsuldorlikka ega kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Shunday qilib, o‘simlikni yaxshi rivojlanishi va ko‘saklarning barvaqt ochilishi, shuningdek mo‘l va yuqori sifatli xosil olish uchun o‘simlik xayotining dastlabki davrlarida sharoit yaratilishi, o‘sha paytda ular yetarli darajada oziq moddalar bilan taminlangan bo‘lishi kerak. Fosforli o‘g‘itlarga kelganimizda, u O‘rta Osiyoning karbonatli tuproqlarida solingan qatlamning o‘zida turib qoladi, nixoyatda kam

<sup>1</sup> 06.01.08. -“O‘simlikshunoslik” ixtisosligi tayanch doktoranti, Andijon Qishloq Xo‘jaligi Va Agrotexnologiyalar Instituti



xarakat qiladi. Shuning uchun xam fosforli o'g'itlarning aksariyat qismi kuzgi shudgor paytida solish tavsiya qilinadi. Bu o'g'it tuproqqa chuqur ko'miladi va g'o'za ildizlari o'sha qatlamga yetib borganidan song uni o'zlashtira boshlaydi. Lekin g'o'za o'suv davri boshlarida xam fosforga talabchan bo'ladi, shuning uchun uni chigit ekish oldidan yoki ekish bilan bir paytda solish xam tavsiya etiladi. Paxtachilikda qo'llanilayotgan texnikalardan samarali foydalanish maqsadida g'o'za parvarishida qator oralarini ishlab chiqish hamda unga ishlov berish agrotexnologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham uzoq yillardan buyon olimlar shu sohada o'z ilmiy izlanishlarini davom ettirib kelmoqdalar. Yerga ekish oldi ishlovlarni haddan ortiqcha olib borilishi natijasida tuproq qatlamini, ayniqsa haydalma qatlamni zichlashishiga olib keladi. Bu holat esa g'o'za o'simligi rivojini kechiktiradi va paxta hosilini kamayishiga olib keladi.

G.Abdalovning [8; B. 135] ma'lumotlarida paxtadan sifatli xom-ashyo g'o'za qator oralariga ishlovni tabaqalashgan holda, sug'orishni esa qator almashtirib amalga oshirilganda qayd qilingan. Eng muhimi, bu variantlarda tuproq va agroximikatlarning yuvilishi kamaygan, unumdorlik oshgan, atrof-muhit toza saqlangan.

G.N.Abdalovning [7; B. 86] ma'lumotlarida chirindi va oziqa unsurlarning eng kam yuvilishi g'o'za qator oralariga beriladigan ishlovlar tabaqalashtirilgan. Bunda chirindining yo'qotilishi o'rtacha uch yilda 1,3; umumiy azot 1,4; yalpi fosfor 1,4 va kaliy 1,3 martaga kamaygan. Irrigatsiya eroziyasiga moyil tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'o'za qator oralarini tabaqalashtirib ishlash tuproq zarrachalarini yuvilishini kamaytiradi.

V.P.Kondratyuk [14; S. 231] esa, g'o'za qator oralariga ishlov berishning asosiy vazifasi tuproq qatlamini g'ovak holda saqlab, o'simliklarni suv, havo va oziqa maromlarini maqbul holatda saqlash deb ta'kidlagan.

A.K.Komilov, A.A.Qashqarov [13; S. 29-34] lar ta'kidlashicha, g'o'zani 60x60-3 va 60x50-3 sm qator oraliqlarida kvadrat uyalab ekish tajribasida yillik o'g'it me'yori N<sub>150</sub>; R<sub>100</sub>; K<sub>50</sub> kg/ga oziqlantirilgan variantdan 40,4 s/ga eng yuqori hosil olishgan.

K.Komilovning [15; B. 15-16] olib borgan tajribalarida g'o'za qator oralarini tabaqalab ishlov berish va chuqur yumshatish yon ildizlarning jarohatlanishini 50 foizga kamaytirishini ta'kidlab o'tgan. Bir holatni ta'kidlab o'tish joizki, har qanday qishloq xo'jalik ekinlarini ko'chat qalinliklari o'rganilar ekan, ularni uyadagi sonlari va qator oralarining kengligiga bevosita aloqador bo'ladi. Shunday ekan ko'chat qalinligi deganda boshqa ma'noda ekish tizimini ham tushunish mumkin bo'ladi. Lekin ko'chat qalinligi bilan ekish tizimlari bir-biridan bir xil ko'chat sonlari, ekish oralig'i va uyalar oralig'i bilan farqlanadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlardan olingan ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosa qilindi. G'o'zaning o'sishi va rivojlanishi uchun muhit qulay bo'lgan ikkinchi variant ya'ni gektariga 50 tonna go'ng, 150 kg fosfor va 125 kg kaliy qo'llanilganda o'simliklar tomonidan mineral moddalarni eng ko'p olib chiqib ketilishi kuzatildi. O'simlik tomonidan azotni olib chiqib ketilishida asosiy o'rinni barglar va urug'lar egallaydi. G'o'za organlarida eng ko'p fosfor chigitda uchraydi. Kaliyning eng ko'p miqdori chanoqlarda bo'ladi. Umumiy qilib aytganda paxta hosili uchun eng ko'p miqdorda kaliy, so'ngra azot va eng kam miqdorda fosfor elementi sarflanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. - «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustivor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi» davlat dasturi PF-4947, Toshkent 2017 yil 7 fevral.
2. Mirziyoyev Sh.M. - «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida»gi PF-5853 sonli Farmoni, Toshkent 2019 yil 23 oktyabr.



3. Abdullayev A.A. Istoricheskiye aspekty evolyutsii skopelosti xlopchatnika // Evolyutsionnyye i selektsionnyye aspekty skorospelosti i adaptivnosti xlopchatnika i drugix sel'skoxozyaystvennykh kultur: Mat. nauch. konf. – Tashkent: «Fan», 2005. 5-8 str.
4. Avtonomov A.A. Seleksiya tonkovoloknistyx sortov xlopchatnika. Tashkent: Fan, 1973. 141 str.

